

INVESTITSIYA JALB QILISHDA XORIJ TAJRIBASI

*Toshkent Kimyo xalqaro univesiteti
Namangan filiali Bank ishi yo'nalishi
4-kurs talabasi
O'rmanjanova Mohina Tohirjon qizi*

Annotatsiya: Ushbu ishda investitsiya jalb qilish jarayonida turli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi o'rganilgan. Jahon amaliyotida investitsion muhitni yaxshilash, investorlar uchun qulay sharoit yaratish, huquqiy himoya, soliq imtiyozlari va infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi omillar muhim o'rin tutadi. Tadqiqot xorijiy tajribalarni tahlil qilgan holda O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan samarali usullarni ko'rsatadi. Shuningdek, xalqaro investitsion siyosatning ijobiy natijalari va iqtisodiy o'sishga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'lar: investitsiya, xorijiy tajriba, capital oqim soliq imtiyozlari, modernizatsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiyinvestitsiya.

Аннотация: В данной работе изучен опыт развитых и развивающихся стран в сфере привлечения инвестиций. Мировая практика показывает, что улучшение инвестиционного климата, создание благоприятных условий для инвесторов, юридическая защита, налоговые льготы и модернизация инфраструктуры играют ключевую роль в повышении инвестиционной активности. В исследовании представлены зарубежные подходы и методы, которые могут быть эффективно применены в условиях Узбекистана. Также рассмотрено влияние международной инвестиционной политики на экономический рост.

Ключевые слова: инвестиции, иностранный опыт, поток капитала, налоговые льготы, модернизация, прямые иностранные инвестиции

Annotation: This study analyzes the experience of developed and developing countries in attracting foreign investments. Global practice demonstrates that improving the investment climate, creating favorable conditions for investors, ensuring legal protection, offering tax incentives, and modernizing infrastructure are essential factors in increasing investment inflows. The research highlights foreign methods and strategies that can be effectively applied in Uzbekistan. It also discusses the positive impact of international investment policies on economic growth.

Keywords: investment, foreign experience, capital flow, tax incentives, modernization, foreign direct investment

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) har bir mamlakat iqtisodiy o'sishining omillaridan biridir. Rivojlangan va rivojlanayotgan o'z iqtisodiyotiga capital, texnologiya hamda tajriba kiritish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga intiladi. Quyida uchta yirik davlat- Singapur, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari(Dubay) misolida investitsiyalarni jalb etish tajribasi ko'rib chiqiladi.

Singapur tajribasi- Singapur 1960-yillardan boshlab xorij investitsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy manbasi sifatida tanlandi. Hukumat „Economic Development Board“ agentligini tashkil etib, barcha investitsiya siyosatini markazlashtirdi. O'zida tabiiy resurslar yo'qligi sababli Singapur iqtisodiyotini sanoatlashtirish uchun xorijiy capital va texnologiyaga tayanishga xorijiy capital va texnologiyaga tayanishga majbur edi. Shu sababdan xorijiy investorlarga qulay muhit yaratish ustuvor yo'nalishga aylandi. Soliq stavkalari pasaytirildi, 17% korporativ soliq, investorlarga 5-15 yilgacha soliq imtiyozlari berildi, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Sodiq, shaffof va barqaror qonunchilik tizimi yaratildi. Natijada Singapur bugun dunyoda eng ko'p TXI jalb qiluvchi mamlakatlardan biri bo'lib, Asia-Pacific mintaqasining moliyaviy markaziga aylangan.

Xitoy tajribasi- Xitoy 1978 yildan boshlab „Ochiq eshiklar siyosati“ni maxsus iqtisodiy zonalar (SEZ) yaratdi. U uzoq vaqt davomida markazlashgan iqtisodiyot tufayli past samaradorlikka ega edi. Xorijiy investitsiyalar orqaliy texnologiya, menejment va bozor takribasini olib kirish- iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylandi. Shenzhen, Zhuhai, Xiamen kabi SEZ zonalar tashkil etdi. Xorijiy sarmoyadorlarga 100% egalik huquqi berildi, xorij imtiyozlari: dastlabki 5yil soliqdan ozod, keying 3 yil kamaytirilgan Stavka. Qulay infiraturuzilma, logistika va arzon ishchi kuchi yaratildi. Chet el kompaniyalariga texnologik hamkorlik tashkil etildi. Natijada Xitoy dunyoda eng kata TXI qabul qiluvchi davlatga aylandi. 2023 yilda uning TXI hajmi 180 mlrd dollardan oshgan.

Birlashgan Arab Amirliklari (Dubay) tajribasi- Dubay iqtisodiy diversifikatsiya siyosatini amalga oshirish, neft qaramlikni kamaytirdi va xizmat ko'rsatish, turizm, moliya hamda logistika sohalariga xorijiy investorlarni jalb qildi. Neft zahiralari cheklangani bo'lsun, Dubay iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun investitsiyalarni boshqa sohalariga yonaltirish zarurligini anglagan. 30 dan ortiq erkin iqtisodiy zonalar tashkil qildi (masalan, Jebel Ali Free Zone), soliq siyosati 0-9 %korporativ soliq, daromad solig'i yo'q, dividend va kapitaldan olinadigan soliq yoq, ayrim bojxona bojlari ham 0 ga teng, tezkor viza berish. 100% xorijiy mulk egaligi ruxsat etilgan. Qulay infiraturuzilma: jahon darajasidagi aeroport, portlar, logistika tarmoqlari. „Invest in Dubai“ platformasi orqali investorlar uchun barcha xizmatlarni bir joyga jamladi. Natijada Dubay Yaqin Sharqdagi eng yirik investitsiya markaziga aylandi 2024 yilda 14.2 milliard dollarlik TXI qabul qildi.

Shu jumladan xorij tajribasining samaradorligi va ushbu tajribalardan mamlakatimizda yaqin yillarda foydalanishimiz ko'zda tutilmoqda hozirda bu tajribadan foydalanish uchun ayrim to'sqinliklar mavjud masalan: qonunchilik va xuquqiy muammolar, bazi investorlar uchun xuquqiy ximoya yetarli emas. Korrupsiya vashaffoflik yetishmovchiligi. Infratuzilma va logistika cheklovlari, transport va logistika tarmoqlari Singapur yoki Dubay darajasida emasligi. Ichki moliyaviy bozor hali cheklanganligi bu xorijiy investorlarni jalb qilishda to'siq bo'lishi mumkun.

Soliqlardan investorlarni ozod etish hozirgi kunda davlat budjetiga malum zarar yetkazishi mumkun masalan: qisqa muddatda byudjet tushumlari kamayadi, agar investorlar uzoq muddatga faol bolmasa yoki faoliyat yomon natijani bersa byudjet zarar ko'rishi mumkun. Aytaylik bazi imtiyozlar noto'g'ri berilsa, ba'zi bizbeslar faqat „soliqsiz“ hududlarga ko'chib, umumiy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shmasligi mumkun

Soliqlardan ozod qilish investitsiyani jalb qilishda samarali vosita, lekin uni muvozanatli, vaqtinchalik va shartli shakilda qo'llash lozim byudjet tushumlarini saqlab qolish uchun prioritet sektorlar, vaqtinchalik imtiyozlar va natijaga bog'liq rag'batlar tatbiq qilinishi kerak shu tarzda investorlar jalb qilinadi iqtisodiy o'sish rag'batlanadi va davlat byudjeti ham barqaror bo'ladi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyani jalb qilishda xalqaro tajribalar muhim o'rin tutadi. Singapur, Dubay va Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, investorlar uchun qulay huquqiy muhit, soddalashtirilgan biznes jarayonlari, soliq imtiyozlari va maxsus iqtisodiy zonalar muhim rag'bat hisoblanadi. Shu kabi strategiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirishga, yangi ish o'rinlari yaratishga va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga hissa qo'shadi. Shunday ekan, O'zbekiston uchun xorijiy tajribalarni o'rganib, soliq siyosati va infratuzilmani izchil takomillashtirish, investorlar ishonchini mustahkamlash strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.edb.gov.sg
- 2.English.mofcom.gov.cn
- 3.Fdi.gov.cn
- 4.www.dubaifdi.gov.ae
- 5.www.dubaichamber.com
- 6.www.dubai.ae